



European Bank
for Reconstruction and Development

OMMAVIY HUJJAT

Independent
Project
Accountability
Mechanism

Muvofiqlikni baholash hisoboti

Zarafshon Shamol Elektr Stansiyasi
Yevropa Taraqqiyot va Tiklanish
Bankining (YTTB)

Loyiha raqami: 52362

YTTBning Loyiha hisobdorligi mustaqil
mexanizmining (IPAM) ish raqami:

2024/01

Dekabr 2025

Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmining (IPAM) Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (EBRD) loyiha shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmi hisoblanadi. IPAM loyiha ta'siriga uchragan shaxslar va fuqarolik jamiyati tashkilotlari tomonidan bildirilgan ekologik, ijtimoiy hamda loyiha bo'yicha axborotni oshkor etish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi.

IPAM murojaatlarni ikkita maqsadda ko'rib chiqishi mumkin:

- i. Muammolarni hal etish — tomonlar o'rtasida ayb yoki javobgarlikni yuklamagan holda muloqotni qo'llab-quvvatlash;
- ii. Muvofiqlikni baholash — EBRDning ekologik va ijtimoiy siyosati hamda axborotdan foydalanish siyosatiga rioya etilgan-etilmaganini aniqlash.

IPAM bilan bog'lanish uchun elektron pochta manzili: ipam@ebrd.com orqali habar yuboring yoki mazkur [veb-sahifaga](#) tashrif buyuring.

Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi (IPAM)

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
Five Bank Street
London, E14 4BG
Buyuk Britaniya

Telefon: +44 (0)20 7338 6000

Email: ipam@ebrd.com

IPAMga shikoyat yuborish tartibi:

EBRD tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarning ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlari bilan bog'liq muammolar quyidagi usullar orqali yuborilishi mumkin: elektron pochta orqali, yozma shaklda, yoki quyida havola orqali onlayn ariza shaklida: <https://www.ebrd.com/project-finance/ipam.html>.

Mundarija

Qisqartmalar ro'yxati	3
Ijrochi xulosa	4
1. Ish mazmuni va hozirgi holati	6
1.1. Murojaat	6
1.2. Loyiha	7
1.3. Hozirgi Kungacha Bo'Lgan Jarayon	8
2. Xulosa va keyingi qadamlar	10

Qisqartmalar ro'yxati

ADB	Osiyo Taraqqiyot Banki
CAO	Muvofiqlik bo'yicha maslahatchi va ombudsman — Xalqaro moliya korporatsiyasining (IFC) mustaqil javobgarlik mexanizmi
EBRD	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
ESDD	Ekologik va ijtimoiy sohada kompleks tekshiruv
ESIA	Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash
ESP	Ekologik va ijtimoiy siyosat
FMO	Niderlandiyaning rivojlanish banki
IBA	Muhim qushlar hududi
IPAM	Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi
JICA	Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi
KBA	Biologik xilma-xillikning muhim hududi
OSPF	Osiyo taraqqiyot bankining mustaqil javobgarlik mexanizmi doirasidagi nizolarni hal etish bo'limi
PAP	2019-yilgi loyiha javobgarligi siyosati
SPV	Maxsus maqsadli kompaniya

Ijrochi xulosa

Murojaat

2024-yil 7-mart kuni Loyiha hisobdorligi mustaqil mexanizmi (IPAM) O'zbekistondagi Zarafshon shamol elektr stansiyasi loyihasiga oid murojaatni qabul qildi. Murojaat xalqaro fuqarolik jamiyati tashkiloti bo'lgan CEE Bankwatch (bundan buyon — Murojaatchilar) tomonidan taqdim etilgan bo'lib, ular loyiha ta'siriga bevosita uchramagan tashkilot sifatida murojaat qilgan.

Murojaatda loyiha hududida biologik xilma-xillikka salbiy ta'sir ko'rsatilayotgani haqida xavotirlar bildirilgan. Xususan, ayrim shamol turbinalari yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan qush turlarining uya qurish hududlariga juda yaqin joylashtirilgani, bu esa ularning ko'payish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi va turbinalar bilan to'qnashuv xavfini oshirishi ta'kidlangan.

Murojaatchilar IPAMdan xodimlarning ismlarini oshkor qilmaslikni va Bankwatch tashkilotini umumiy tarzda "Murojaatchi" deb atashni so'rab, maxfiylikni talab qildilar. Bu talab O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan alohida mutaxassislarning aniqlanishi va ularga nisbatan bosim yoki ta'qiblar yuzaga kelishi mumkinligi bilan izohlangan.

Xuddi shu mazmundagi murojaatlar Xalqaro moliya korporatsiyasining Muvofiqlik bo'yicha maslahatchi va ombudsmani (CAO) hamda Osiyo taraqqiyot bankining Maxsus loyiha fasilitatori ofisi (OSPF) ga ham parallel ravishda taqdim etilgan.

Loyiha

[Zarafshon shamol elektr stansiyasi loyihasi \(OpID 52362\)](#) 2022-yil 22-iyul kuni EBRD Boshqaruv kengashi tomonidan ma'qullangan bo'lib, Navoiy viloyatining Tomdi tumanida 500 MVt quvvatga ega yangi shamol elektr stansiyasini qurish va ekspluatatsiya qilishni nazarda tutadi.

Loyiha 111 ta shamol turbinasini, podstansiyani, kirish yo'llarini, kabel tarmoqlarini hamda qisqa masofali uzatish liniyalarini o'z ichiga oladi. Loyihaning umumiy hududi 9 600 gektarni tashkil etadi va u xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yirtqich qush turlarining yashash joyi hisoblangan Aktau tog'idagi Muhim qushlar hududidan (IBA) taxminan 3,5 km masofada joylashgan.

Qarz oluvchi tomon — Masdar kompaniyasiga tegishli bo'lgan maxsus maqsadli kompaniya (SPV) bo'lib, Masdar Mubadala Investment Company'ning sho'ba korxonasi hisoblanadi.

Loyihaning miqyosi va ekologik jihatdan sezgir hududlarga yaqin joylashgani sababli u 2019-yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosatga muvofiq A toifali loyiha sifatida tasniflangan va, keng qamrovli ekologik va ijtimoiy ekspertiza o'tkazilishini talab etgan.

Loyiha shuningdek Osiyo taraqqiyot banki (ADB), Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), FMO va JICA tomonidan ham moliyalashtirilgan. Murojaat taqdim etilgan paytda loyiha qurilish bosqichining yakuniga yetayotgan edi.

IPAM jarayoni

Murojaat 2019-yilgi Loyiha javobgarligi siyosatiga muvofiq, loyiha ta'siriga bevosita uchramagan tashkilotlarning atrof-muhit bilan bog'liq masalalar bo'yicha murojaat qilish huquqi tan olinganligi sababli, 2024-yil 13-may kuni [2024/01-sonli ish](#) sifatida ro'yxatdan o'tkazildi (2.1(a)(ii)-band).

Biroq, mazkur siyosatga muvofiq, bunday murojaatlar faqat Muvofqlik funksiyasi doirasida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgani sababli, ish ro'yxatdan o'tkazilgach bevosita ushbu bosqichga yo'naltirildi.

Muammolarni hal etish mexanizmi IPAM tomonidan qo'llanilishi mumkin emas edi, garchi bu Murojaatchilarning asosiy maqsadi bo'lgan bo'lsa-da. Shu sababli, ular Xalqaro moliya korporatsiyasining CAO mexanizmi orqali nizoni hal etish jarayonini davom ettirish maqsadida IPAM jarayonini vaqtincha to'xtatishni so'radilar. IPAM muvofqlik jarayoni faqat kelishuvga erishilmagan taqdirda oxirgi chora sifatida ko'rib chiqilishi rejalashtirilgan edi.

2025-yil noyabr oyida Murojaatchilar IPAMga CAO boshchiligidagi jarayon doirasida kelishuvga erishilganini ma'lum qilib, o'z murojaatini qaytarib olish istagini bildirdilar.

Xulosa va keying qadamlar

Murojaatchilarning qarorini va CAO nizolarni hal etish jarayoni orqali masalalar hal qilinganini inobatga olib, IPAM Boshqaruv kengashiga 2024/01-sonli ishni yopishni tavsiya etadi.

Mazkur Muvofqlikni baholash hisoboti manfaatdor tomonlarga taqdim etiladi hamda Boshqaruv kengashining e'tiroz bildirmasligi sharti bilan [Murojaatlar Ro'yxati \(ebrd.com\)](#) saytida "[2024/01 — Zarafshon Shamol Elektr Stansiyasi](#)" (ingliz tilidagi versiya) nomi ostida e'lon qilinadi. Hisobot oshkor etilgach, ushbu ishni ko'rib chiqish jarayoni rasman yakunlanadi.

1. Ish mazmuni va hozirgi holati

1.1. Murojaat

2024-yil 7-mart kuni IPAM Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) tomonidan moliyalashtirilayotgan Zarafshon shamol elektr stansiyasi loyihasiga oid murojaatni qabul qildi. [Murojaat](#) loyiha ta'siriga bevosita uchramagan tashkilot — CEE Bankwatch tomonidan taqdim etilgan.

Murojaatchilar IPAMdan xodimlarning ismlarini oshkor qilmaslikni va Bankwatch tashkilotini umumiy tarzda "Murojaatchi" sifatida tilga olishni so'rab, maxfiylikni talab qildilar. Bu talab O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan ayrim mutaxassislarning aniqlanishi va ularga nisbatan ehtimoliy bosim yoki ta'qiblar o'tkazilishi mumkinligi bilan izohlangan.

Murojaatda loyiha Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining 2019-yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosatining bir qator moddalari, xususan biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, ta'sirlarni kamaytirish iyerarxiyasi, manfaatdor tomonlar bilan muloqot hamda muhim yashash muhitlarini himoya qilishga oid talablariga mos kelmasligi da'vo qilingan.

1-jadval. Murojaatda ko'tarilgan masalalar

Ko'tarilgan masalalar	Murojaatchilarning da'volari
Biologik xilma-xillik va muhim yashash muhitlarini yetarli darajada muhofaza qilmaslik	Tomditog' (Tamdytau) hududining biologik xilma-xillik uchun eng muhim qismi muhofaza etiladigan hudud sifatida belgilab olinmagan. Aktau–Tomdi davlat qo'riqxonasi joylashuvi so'nggi daqiqada ilmiy jihatdan tavsiya etilgan hududdan chetga surilgan bo'lib, bu hudud yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlar va noyob flora uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu o'zgarish Zarafshon shamol stansiya loyihasi boshqa rivojlanish loyihalar bilan ziddiyatlarni oldini olish maqsadida amalga oshirilgandek ko'rinadi.
Atrof-muhitga ta'sirlarni yetarli darajada baholamaslik va yumshatish choralarining yetishmasligi	Loyiha bo'yicha Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (ESIA) hisobotida muhofaza etilgan hududga bo'ladigan potensial ta'sirlar to'liq yoritilmagan va yetarli yumshatish (mitigatsiya) choralarini taklif qilinmagan. Shamol turbinalari uchun muqobil joylashuv variantlari baholanmagan, shuningdek mintaqadagi bir nechta shamol loyihalarining jamlanma (kumulativ) ta'siri hisobga olinmagan.
Yo'qolib ketish xavfi ostidagi qush turlariga yetkazilgan zarar	Loyiha hududi global va milliy miqyosda tahdid ostida bo'lgan qush turlarining asosiy yashash hududlarida joylashgan. Bular qatoriga sakershahin (saker lochini), Misr kalxati, qora kalxat, oltin burgut va boshqa yirtqich qushlar kiradi. Turbinalar faol uyalar yaqinida joylashtirilgan, yumshatish choralari (masalan, himoya zonalari) yetarli ilmiy asosga ega emas. Talabga binoan turbinalarni o'chirish tizimi (IdentiFlight) sezilarli cheklovlarga ega bo'lib, qushlar va ko'rshapalaklar uchun xavflarni to'liq bartaraf eta olmaydi.
Shaffoflik va ma'lumotlarni o'z vaqtida oshkora qilmaslik	2022-yilda o'tkazilgan uyalar monitoringi natijalari qurilish ishlari boshlanganidan keyingina manfaatdor tomonlarga taqdim etilgan. ESIA hisobotida uyalar aniq joylashuvi ochiq ko'rsatilgan bo'lib, bu brakonerlik va uyalarni talon-toroj qilish xavfini oshirgan. Bu holat mintaqadagi yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlar uchun jiddiy tahdid hisoblanadi.

Loyihani joylashtirish va tekshiruv jarayonlaridagi tizimli muammolar	Loyiha uchun yer uchastkalari asosan shamol salohiyati va infratuzilmaga yaqinlik asosida ajratilgan bo'lib, ekologik xatarlar yetarli darajada hisobga olinmagan. EBRD va boshqa kreditorlar moliyalashtirish jarayoniga loyihaning yakuniy bosqichda kelib qo'shilganligi sababli salbiy ta'sirlarning oldini olish imkoniyatlari cheklangan bo'lgan.
Manfaatdor tomonlar bilan yetarli darajada muloqot olib borilmagan	Loyiha joylashuvi bo'yicha mahalliy aholi va ekologik mutaxassislar bilan mazmunli maslahatlashuvlar o'tkazilmagan. Yer ajratish jarayonida mahalliy aholining chorva boqish huquqlari e'tiborga olinmagan. Shuningdek, O'zbekistondagi inson huquqlari va so'z erkinligi bilan bog'liq xavotirlar mahalliy mutaxassislarning shikoyat jarayonida ochiq ishtirok etishiga to'sqinlik qilgan.

Murojaatda Bankwatch tashkiloti Aktau tog'ining uzoq muddatli muhofaza qilinishini, turlar yo'qolib ketishining oldini olish zarurligini, loyiha ta'sirlarini mustaqil monitoring qilishni, ayrim shamol turbinalarini ko'chirish yoki ularning ishlashini cheklashni hamda EBRD tomonidan yanada puxta tekshiruv (due diligence) o'tkazilishini ta'kidlagan. Shuningdek, ular o'z murojaatlarida ko'tarilgan masalalar IPAM orqali ham muammolarni hal etish, ham muvofiqlikni ko'rib chiqish jarayonlari doirasida ko'rib chiqilishini so'ragan.

Xuddi shunday mazmundagi murojaatlar Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Osiyo taraqqiyot bankiga (ADB) ham parallel ravishda taqdim etilgan.

1.2. Loyiha

Zarafshon shamol elektr stansiyasi loyihasi Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRD) tomonidan 2022-yil 22-iyul kuni ma'qullangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyatining Tomdi tumanida joylashgan, 500 MVt o'rnatilgan quvvatga ega yangi shamol elektr stansiyasini ishlab chiqish, qurish va ekspluatatsiya qilishni moliyalashtirishni nazarda tutadi.

Qarz oluvchi tomon O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan maxsus maqsadli kompaniya (SPV) bo'lib, u Abu Dhabi Future Energy Company PJSC — Masdarga tegishlidir. Masdar esa Mubadala Investment Company'ga to'liq egalik qiladi; mazkur investitsiya kompaniyasi Abu-Dabi hukumati tomonidan tashkil etilgan va to'liq davlatga qarashlidir.

Loyihaning asosiy maqsadi — mamlakat energetika tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish hamda milliy tarmoqqa qo'shimcha 500 MVt shamol energiyasi ishlab chiqarish quvvatini kiritishdan iborat.

Shamol elektr stansiyasi 111 ta shamol turbinasidan iborat bo'lib, 9 600 gektar maydonni egallaydi. Loyiha hududi Aktau tog'idan taxminan 3,5 km masofada joylashgan bo'lib, mazkur hudud Muhim qushlar hududi (IBA) va Muhim biologik xilma-xillik hududi (KBA) hisoblanadi. Bu hudud xalqaro va milliy darajada muhofaza qilinadigan yirtqich qush turlarining ko'payish va doimiy yashash joylarini o'z ichiga oladi.

Loyiha ekologik va ijtimoiy xatarlar, xususan biologik xilma-xillik va yer resurslariga bo'lgan ta'sirlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli, Bankning 2019-yilgi Ekologik va ijtimoiy siyosati (ESP) ga muvofiq A toifali loyiha sifatida tasniflangan.

Ekologik va ijtimoiy sohada kompleks tekshiruv (ESDD) boshqa kreditorlar — Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), Osiyo taraqqiyot banki (ADB), FMO va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) bilan hamkorlikda amalga oshirilgan.

1.3. Hozirgi Kungacha Bo'Lgan Jarayon

1.3.1. Murojaatni ro'yxatdan o'tkazish

Murojaat IPAM tomonidan 2019-yilgi loyiha javobgarligi siyosatining (PAP) 2.2(b)-bo'limida belgilangan ro'yxatdan o'tkazish mezonlariga javob bergani hamda PAPning 2.2(c)-bo'limida nazarda tutilgan istisnalar ushbu bosqichda qo'llanilmaganligi sababli, 2024-yil 13-may kuni [2024/01-sonli ish \(Zarafshon Wind\)](#) sifatida ro'yxatdan o'tkazildi.

Murojaatni ro'yxatdan o'tkazish ma'muriy bosqich bo'lib, u quyidagi mezonlar bajarilganligini tasdiqlaydi:

- barcha majburiy ma'lumotlar taqdim etilgan;
- ko'tarilgan masalalar Bankning 2019-yilgi ekologik va ijtimoiy siyosati (ESP) va/yoki Axborotdan foydalanish siyosatining (AIP) loyiha bo'yicha aniq qoidalaridir doirasidagi majburiyatlariga taalluqli;
- murojaat Bank tomonidan ma'qullangan loyiha bilan bog'liq; va
- taqdim etilgan murojaat faol loyiha bilan bog'liq yoki Bank loyiha bo'yicha moliyaviy manfaatdorligini to'xtatgan sanadan boshlab 24 oy ichida yuborilgan.

Loyiha javobgarligi siyosatiga muvofiq, ro'yxatdan o'tkazilgach darhol ish Muvofiqlikni baholash bosqichiga o'tkazildi, chunki loyiha ta'siriga bevosita yoki shaxsan uchramagan tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan murojaatlar, ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda, faqat IPAMning Muvofiqlik funksiyasi doirasida ko'rib chiqilishi mumkin.

1.3.2. Muvofiqlikni baholash

Muvofiqlikni baholash bosqichida IPAM ishning muvofiqlikni ko'rib chiqish (Compliance Review) uchun maqbul yoki maqbul emasligini aniqlashni maqsad qiladi. 2019-yilgi Loyiha javobgarligi siyosatiga (PAP) muvofiq, tergov boshlanishi uchun quyidagi ikki mezon bajarilishi lozim:

- i. dastlabki ko'rib chiqish natijasida loyiha Murojaatchilarga (yoki tegishli loyiha ta'siriga uchragan shaxslarga) bevosita yoki bilvosita, sezilarli zarar yetkazgan bo'lishi yoki yetkazishi ehtimoli mavjudligi aniqlansa; va
- ii. Bank loyiha tasdiqlangan paytda amalda bo'lgan ekologik va ijtimoiy siyosatining (shu jumladan Bank tomonidan mijoz majburiyatlarini monitoring qilish talablariga oid bandlarning) yoki Axborotdan foydalanish siyosatining (AIP) loyiha bo'yicha qoidalariga rioya qilmagan bo'lishi ehtimoli aniqlansa.

2024-yil 18-iyul kuni Murojaatchilar IPAMdan Muvofiqlikni baholash jarayonini vaqtincha to'xtatishni so'radilar, chunki ular nizolarni hal etishning ustuvor yo'li sifatida Xalqaro moliya korporatsiyasining Muvofiqlik bo'yicha maslahatchi va ombudsmani (CAO) doirasidagi nizolarni hal etish jarayonini olib borayotgan edilar.

Shu asosda IPAM 2024/01-sonli ishni ko'rib chiqishni dastlab 2024-yil sentabr oyigacha vaqtincha to'xtatdi, keyinchalik esa CAO jarayoni davom etayotgani sababli ushbu muddat 2025-yil oktabr oyining oxirigacha uzaytirildi.

2025-yil 6-noyabr kuni Murojaatchilar IPAMga yozma ravishda CAO tomonidan monitoring qilinadigan kelishuvga erishilganini ma'lum qildilar. Natijada, ular IPAMga taqdim etilgan murojaatni qaytarib olishlarini bildirdilar.

2. Xulosa va keyingi qadamlar

Murojaatchilarning qarorini va CAO nizolarni hal etish jarayoni orqali ko'tarilgan masalalar hal qilinganini inobatga olib, IPAM Boshqaruv kengashiga 2024/01-sonli ishni yopishni tavsiya etadi.

Mazkur Muvofiqlikni baholash hisoboti tegishli tomonlarga taqdim etiladi va Boshqaruv kengashining e'tiroz bildirmasligi sharti bilan [Murojaatlar Ro'yxati](#) (ebrd.com) saytida "[2024/01 — Zarafshon Wind](#)" ([ingliz tilidagi versiya](#)) nomi ostida e'lon qilinadi. Hisobot oshkor etilgach, ushbu ish bo'yicha ko'rib chiqish jarayoni rasman yakunlanadi.